

“Tasdiqlayman”

O'zbekiston davlat san'at va  
madaniyat instituti rektori  
v.v.b. E.U. Shermanov



2023-yil “ 4 ” 106

**KASBIY (IJODIY) IMTIHON DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211000 – San'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili)  
ta'lim yo'nalishi uchun**

- 1. Kinoshunoslik fanidan**
- 2. Kinodramaturgiya fanidan**

Toshkent – 2023

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv - uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023-yil \_\_\_\_\_ - sonli majlis bayoni.

#### **Tuzuvchilar:**

- A.Z.Rizayev - O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası professori v.b., san'atshunoslik fanlari nomzodi;
- F.M.Abduvohidov - O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası dotsent, (PhD).

#### **Taqrizchilar:**

- M.T.To'laxo'jayeva - O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası professori, san'atshunoslik fanlari doktori;
- A.H.Ismoilov - San'atshunoslik instituti direktor o'rinbosari, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

#### **Kirish**

60211000 – San'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlarning ijodiy (kasbiy) imtihoni dasturi hujjatlarini qabul qilish va kirish imtihonlar "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlariga qabul qilish qoidalari"ga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihonlar har bir ixtisoslik uchun ta'kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi har bir Oliy o'quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili qabul qilish qoidalari ko'rsatiladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihonning biron-bir bo'limida professional yaroqliligi yetarlicha bo'lmagan shaxslar aniqlansa, keyingi bo'limlarni topshirishga va boshqa imtihonlarga kiritilmaydi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga o'qishga kirayotganlarga imtihonlar oldidan konsultatsiya o'tkaziladi. Konsultatsiyalarning maqsadi – qabulning shartlari bilan tanishishtirish, mazkur oliy o'quv yurtiga kirishni xohlovchilarning qobiliyatini va tayyorgarlik darajasini aniqlashdan iboratdir. Konsultatsiya mobaynida pedagoglar, abiturientlarni tanlagan ixtisosligiga qarab, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar beradi.

60211000 – San'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) - san'at sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo'lib, u o'z ichiga kino san'atining zamonaviy va tarixiy jarayonlarini o'rganishni, kino san'atidagi voqea va hodisalar haqida xulosalar chiqarishni, tarixiy va zamonaviy mavzularda olingan filmlarning mavzusi, g'oyaviy mazmuni, jamiyat insonlariga ma'naviy-ma'rifiy ta'sir kuchi, ahamiyatli jihatlari, muammo va yechimlari to'g'risida ilmiy va muammoli maqolalar yaratish, kino san'ati to'g'risida ilmiy-ommabop adabiyotlar, turli kinofilmlar haqida taqrizlar yozish, kino va kino ijodkorlari haqida fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borish, kino san'atining ijodiy jarayonlari, yutuq va muammolari xususida tadqiqotlar olib borish, olingan natijalarni OAVda keng yoritib borish majmuini qamrab oladi.

#### **Fanning maqsad va vazifalari**

60211000 – San'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) ta'lim yo'nalishida ijodiy (kasbiy) imtihonlar abituriyentlarning kinoshunoslik va kinodramaturgiya fanlaridan ijodiy - ilmiy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy ilmiy-nazariy fanlaridan san'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) nuqtai nazaridan topshiriqlarni bajaradilar:

### **Kinoshunoslik fani bo'yicha**

Kinoshunoslik fanidan kirish imtihonida abituriyent berilgan savollarga og'zaki javob berishi kerak. Savol – javobda abiturent o'z salohiyatini ko'rsatishi lozim. Savol – javob kino san'ati sohasiga tegishli mavzular doirasida o'tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo'yicha abiturentning dunyoqarashi, fikrlash darajasi, qobiliyati kasbiy tasavvuri tekshiriladi.

Kinoshunoslik faniga qo'yiladigan talablar:

- kino san'ati to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi;
- kinoning vujudga kelishi, shakllanish jarayonlari, asoschilari va yirik namoyandalari bilishi;
- kinoning turlari va janrlari;
- kino san'atining o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- kino va televizion filmlarni farqlay olishi;
- kinofilmlarni tahlil qila olishi;
- o'zbek milliy kinoning namoyandalari (kinossenarist, rejissyor, operator, aktyor va boshqalar) haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- zamonaviy kino jarayonidan xabardorligi;
- dublyaj san'ati haqida tushunchaga ega bo'lishi;
- o'zbek animatsion filmlarni bilishi va tahlil qilishi;
- qisqa metrajli filmlar haqidagi tasavvuri;
- jahon va o'zbek kinofestivallardan xabardorligi;
- kino san'atiga oid adabiyotlarni o'rganganligi;
- tajribali kinoshunoslar faoliyatidan xabardorligi;
- dunyoqarashi, muomala madaniyati va bilimini bayon qilish mahorati sinovdan o'tkaziladi.

### **Kinodramaturgiya fani bo'yicha**

Kinodramaturgiya fanida abiturentning ssenariylarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish qobiliyati sinaladi. Kinodramaturgiya bo'yicha tasavvur va tahlil qilish imkoniyatlarini hamda tushunchalarini suhbat jarayonida namoyon etadi.

Kinodramaturgiya faniga qo'yiladigan talablar:

- kinodramaturgiya haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishi;
- kinodramaturgiyaning tarixi va shakllanish bosqichlari;
- kinodramaturgiyaning o'ziga xos xususiyatlari;
- kinodramaturgiyaning tur va janrlari;
- filmning g'oyaviy va badiiy jihatlari xususidagi tasavvuri;
- filmda ilgari surilgan mavzuni anglay olishi;
- jahon va o'zbek kino dramaturglari ijodidan xabardorligi;
- kinossenariyning sahna uchun mo'ljallab yozilgan pesadan farqi va o'xshash tomonlarini anglay olishi;

- kinossenariyni tahlil qilalish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- tarixiy va zamonaviy film xususiyatlarini farqlay olishi;
- ssenariy muallifining rijissyor bilan hamkorligi va filmni sur'atga olish jarayonlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- badiiy va xujjatli filmlarni bir-biridan farqlay olishi sinovdan o'tkaziladi.

### **Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar**

**Kinoshunoslik** fanidan kirish imtihonida abituriyent berilgan savollarga og'zaki javob berishi kerak. Savol-javob kino san'ati sohasiga tegishli mavzular doirasida o'tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo'yicha abiturentning dunyoqarashi, fikrlash darajasi, qobiliyati kasbiy tasavvuri tekshiriladi.

**Kinoshunoslik** fanidan abiturentlarga qo'yiladigan talablar: kino san'ati to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi, kinoning vujudga kelishini, shakllanish jarayonlarini, asoschilari va yirik namoyandalari, kinoning turlari va janrlarini, kino ijodkorlar haqida tasavvurga egaligini, kino va televizion filmlarni farqlay olishini, kino asarlarini tahlil qila olishini, o'zbek milliy kinoning darg'alarini (kinossenarist, rejissyor, operator, aktyor va boshqalar) haqida tasavvurini, zamonaviy kino jarayonidan xabardorligini, o'zbek animatsion filmlarini bilishi va tahlil qilish qobiliyatini, qisqa metrajli filmlar haqidagi tasavvurini, jahon va o'zbek kinofestivallardan xabardorligini, kino san'atiga oid adabiyotlarni o'rganganligini, tajribali kinoshunoslar faoliyati va ularning ilmiy izlanishlaridan xabardorligini bayon qilishi kerak.

**Kinodramaturgiya** fanidan abituriyent kinodramaturgiya haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishi, kinodramaturgiyaning tarixi va shakllanish bosqichlari, kinodramaturgiyaning o'ziga xos xususiyatlari, kinodramaturgiyaning tur va janrlari haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Jahon va o'zbek kino dramaturglari ijodidan xabardorligini, kinossenariyning sahna uchun mo'ljallab yozilgan pesadan farqi va o'xshash tomonlarini, kinossenariyni tahlil qilalish qobiliyatiga egaligini, tarixiy va zamonaviy film xususiyatlarini farqlay olishini, ssenariy muallifining rijissyor bilan hamkorligi va filmni sur'atga olish jarayonlari haqida tasavvurga egaligini, badiiy va xujjatli filmlarni bir-biridan farqlanishini bilishi kerak.

**Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:**

**Kinoshunoslik fani bo'yicha**

T.r.	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Kinoning vujudga kelishi, asoschilari va yirik namoyandalari haqidagi tasavvuri	10
2.	Zamonaviy o'zbek kino san'atining ijodiy-tashkiliy jarayonlaridan xabardorligi	9
3.	Kino va telefilmlarning farqi va o'xshash jihatlarni bilishi	10
4.	O'zbek milliy kinosining yetuk namoyandalari (kinossenarist, rejissyor, operator, aktyor va boshqa)lar ijodini bilishi	10
5.	Badiiy va xujjatli filmlarni farqlash va tahlil qilish qobiliyati	10
6.	Animatsion va qisqa metrajli filmlar xususiyati haqidagi tasavvuri	10
7.	Nufuzli xalqaro va Milliy kinofestivallardan xabardorligi	8
8.	Kino san'atiga oid adabiyotlarni o'rganganlik darajasi	10
9.	Yetuk kinoshunoslar faoliyatidan xabardorlik darajasi	10
10.	Abituriyentning dunyoqarashi, muomala madaniyati va bilimni bayon qilish qobiliyati	6
	<b>Hammasi</b>	<b>93</b>

**Kinodramaturgiya fani bo'yicha**

T.r.	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Kinodramaturgiya haqidagi umumiy tasavvuri	6
2.	Kinodramaturgiyaning tarixi va bugungi holatini bilish darajasi	6
3.	Kinodramaturgiyaning o'ziga xos xususiyatlari tur va janrlarini bilishi	7
4.	Kinossenariy mavzusi va g'oyaviy mohiyatini ochib berish mahorati	6
5.	Jahon va o'zbek kino dramaturglari ijodidan xabardorligi	6
6.	Sahna va kinodramaturgiyaning farqi va o'xshash jihatlarni anglashi	6

7.	Filmlarni suratga olishda senariy muallifi, postonovkachi rejissyor va operatorning o'zaro hamkorligi haqidagi tushunchasi	7
8.	Badiiy va xujjatli filmlarni bir-biridan farqlay olishi	6
9.	Yosh kinodramaturglar ijodidan xabardorlik darajasi	6
10.	Kino san'atining badiiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati haqidagi tushunchasi	7
	<b>JAMI</b>	<b>63</b>

**Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi**

60211000 – San'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar uchun jadval asosida belgilangan kunlarda ikkita fandan iborat ijodiy imtihonlar bo'lib o'tadi.

Ijodiy imtihonlar qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlardan iborat bo'lib, ijodiy imtihon suhbat, savol – javob asosida o'tkaziladi. Ijodiy imtihonlar maxsus jihozlangan xonalarda o'tkaziladi.

**Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hayatiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

1. Mirziyoyev.SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev.SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev.SH.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev.SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2016.
5. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 4 avgust, 153-son.
6. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 17 fevral, 35-son.
7. "Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.- T.:2017 yil 15-fevral.
8. Mirziyoyev.SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021.
9. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, –T.: O'zbekiston, 2008.
10. Karimov.I.A. Ona yurtimiz baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. –T.: O'zbekiston, 2015.
11. "O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlar haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori; 2005 yil, 27 dekabr.
12. "Milliy serial" kompleks ijodiy-ishlab chiqarish dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 2006 yil 12 iyun.
13. Aliyev M. Kino asoslari. –T.: O'qituvchi, 1993.
14. Muxamedov M., Fayziyeva F., Ablyayeva V. Televideniye asoslari. – T.: Voris nashriyoti. 2009.
15. Teshaboyev J., Abulqosimova X. Kinoiskusstvo Uzbekistana. – T.: Fan va texnologiyalar, 1986.
16. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. –T.: Fan va texnologiyalar, 2009.
17. O'zbekiston milliy ensiklopediya 1 – 12 jildlar.
18. Akbarov H. Ekran ziyinati. –T.: Yosh gvardiy. 1978.
19. Abulqosimova X, Umarov S. Kinodramaturgiya asoslari. –T.: Turon Iqbol, 2018.
20. Aleksandr Mitta. Kinoda dramaturgiya va rejissura. –T.: Fan va texnologiyalar, 2009.

21. Isoqov A. Kinomatografiya tarixi. –T.: Turon Iqbol. 2019.

22. Akbarov H. Kino san'ati tarixi. –T.: Islom universiteti. 2005.

23. Akbarov H. Kinoteledramaturgiya asoslari. –T.: Ilim ziyo. 2006.

24. Xaytmatova S. Kinoshunoslik. –T.: Fan va ta'lim poligraf. 2020.

25. Isoqova M. Kino va televideniye tarixi. –T.: Fan va ta'lim poligraf. 2021.

### Internet saytlari

1. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz),
2. [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz),
3. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com),
3. [www.uzbekkino.uz](http://www.uzbekkino.uz),
4. [www.cinema.uz](http://www.cinema.uz),
5. [www.kino-teatr.ru](http://www.kino-teatr.ru)

O.Z.Rizayev va F.M.Abduvohidovlar tomonidan 60211000 – San'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) ta'lim yo'nalishi uchun tuzilgan "Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi va baholash mezozi"ga

#### TAQRIZ

Mazkur dastur uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlariga muvofiq Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'iga asosan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida joriy yilda qabul qilinadigan 60211000 – San'atshunoslik (teatrshunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan.

Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim tizimiga bo'lajak talabalarini o'qishga qabul qilish uchun abituriyentlardan kasbiy imtihonlar qabul qilish va mutaxassislik fanlaridan iqtidori, kino san'atiga qiziqishi, kinoshunoslar ijodiy jarayonlarini bilishi, so'nggi kino olami yangiliklaridan xabarдорligini aniqlash maqsadida kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish bo'lajak san'atshunos kadrlarni kasbiy sohada bilim va malakalarini aniqlashda muhim hisoblanadi.

60211000 – San'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) bakalavriat ta'lim yo'nalishida bo'lajak kinoshunoslarni tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning kinoshunoslik, kinodramaturgiya, kino tarixi fanlaridan nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha o'tkaziladi.

Dasturda, san'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) bu to'liq ilmiy soha ekanligi, abituriyent subhat davomida kino arboblarning ijodiy faolligi, mashhur badiiy filmlarning tarbiyaviy ahamiyati, kinossenariy hamda kinorejissyorlar ijodlarini yorituvchi ahliliy fikrlar, kino san'atining turlari va janrlari haqida bo'lishi mumkinligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, mustaqil O'zbekistonda san'at sohalarini ma'naviy-ma'rifiy, badiiy – estetik tarbiyaning asosiy vositesidan biri deb qaralayotgani, kino san'ati ma'naviy-ma'rifiy sohalarini rivojlantirish uchun xizmat qilayotganligi ham ijodiy imtihon jarayonida bo'lishi e'tiborli.

Subhat davomida talabgorlarning mustaqil fikrlay olishi, kino san'atining zamonaviy va tarixiy jarayonlaridan xabardorligini, adabiy va badiiy tafakkur darajasi, fikrlarini mantiqiy asoslashi keltirib o'tilgan. Shuningdek, savol – javob davomida abituriyent fikrlarining salmoqlikligi, asosliqligi izchilligi va kompozitsion tizimining yoritilishi ham tashkirlilishi maqsadga muvofiq.

Subhat davomida abituriyent kino san'atining zamonaviy va tarixiy jarayonlaridan xabardorligini, adabiy va badiiy tafakkur darajasini, fikrlarini mantiqiy asoslashi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O.Z.Rizayev va F.M.Abduvohidovlar tomonidan 60211000 – San'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) ta'lim yo'nalishi uchun tuzilgan "Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi va baholash mezozi" OTM talablariga mos keladi. Mazkur dasturni amaliy jarayonga tavsiya etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zDSMI

"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"  
kafedrasi professori, s.f.d.



O.Z.Rizayev va F.M.Abduvohidovlar tomonidan 60211000 – San'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) ta'lim yo'nalishi uchun tuzilgan "Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi va baholash mezozi"ga

#### TAQRIZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida joriy yilda qabul qilinayotgan 60211000 – San'atshunoslik (teatrshunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga talablariga muvofiq tuzilgan.

Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim tizimiga bo'lajak talabalarini o'qishga qabul qilish uchun abituriyentlardan kasbiy imtihonlar qabul qilish va mutaxassislik fanlaridan kino san'ati jarayonlaridan xabarдорligini aniqlash maqsadida kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish bo'lajak san'atshunos kadrlarni kasbiy sohada bilim va malakalarini aniqlashda muhim hisoblanadi.

60211000 – San'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) bakalavriat ta'lim yo'nalishida bo'lajak kinoshunoslarni tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning kinoshunoslik, kinodramaturgiya asoslari, kino va televideniye tarixi fanlaridan nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha o'tkaziladi.

Dasturda, san'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) bu to'liq ilmiy kasb ekanligi, abituriyentda og'izaki berilgan savollar yirik kino arboblarning ijodiy faolligi haqida, o'zbek kinosisning mashhur badiiy filmlari, kinossenariylarning tahlili, taniqli kinorejissyorlarning ijodlarini yorituvchi tahliliy ishlari, kino san'atining turlari va janrlari haqida bo'lishi mumkinligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, mustaqil O'zbekistonda san'at sohalarini ma'naviy-ma'rifiy, badiiy – estetik tarbiyaning asosiy vositesidan biri deb qaralayotgani, kino san'ati ma'naviy-ma'rifiy sohalarini rivojlantirish uchun xizmat qilayotganligi ham subhat jarayonlarida bo'lishi e'tiborli.

Subhat davomida abituriyent kino san'atining zamonaviy va tarixiy jarayonlaridan xabardorligini, adabiy va badiiy tafakkur darajasini, fikrlarini mantiqiy asoslashi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O.Z.Rizayev va F.M.Abduvohidovlar tomonidan 60211000 – San'atshunoslik (kino san'ati tanqidi va tahlili) ta'lim yo'nalishi uchun tuzilgan "Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi va baholash mezozi" OTM talablariga mos keladi. Mazkur dasturni amaliy jarayonga tavsiya etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



San'atshunoslik instituti

direktor o'rinbosari, san'atshunoslik  
fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

A.H. Ismoilov